

**TOG‘AY MUROD ASARLARIDA QO‘LLANILGAN
ANTROPONIMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI***Eshmirzayev Bahodir Jo‘rayevich**DTPI o‘qituvchisi*

Аннотация: Mazkur maqolada hozirgi o‘zbek tilida Alloh hamda payg‘ambarlarning go‘zal nomlari zaminida yasalgan atoqli otlar Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llangan antroponimlarning semantik xususiyatlari asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: antroponim, atoqli ot, komponent, diniy adabiyot, ilmiy adabiyot.

Kirish

Hozirgi o‘zbek tilida Allohning go‘zal nomlari zaminida yasalgan ko‘pgina ismlar mavjud va ular o‘zbek kishilarining atoqli otlari hisoblanadi. Bu Tog‘ay Murod asarlaridan olingan quyidagi dalillardan yorqin ko‘rinib turibdi: Mo‘min (omonli va omonlik beruvchi) ismi —Yulduzlar mangu yonadil asarida va —Ot kishnagan oqshom qissasida, Karim (karamli, saxovatli, kechirimli) —Yulduzlar mangu yonadi qissasida, Rahmon (o‘ta mehribon) —Ot kishnagan oqshom asarida, Jabbor (bandalari ishini isloh etuvchi), Xoliqul (yartuvchi; xal qiluvchi) ismlari —Yulduzlar mangu yonadi asarida, Shokirqul (oz ishga ko‘p mukofot beruvchi) —Ot kishnagan oqshomlarda, Majid (ne‘mati va ehsoni bepoyon) —Oydinda yurgan odamlar asarida, Hamid (hamdu sanoga, maqtovgga loyiq zot) —Yulduzlar mangu yonadi qissasida va —Ot kishnagan oqshom asarida, Samad (bahojat, hojatbaror) —Yulduzlar mangu yonadi va —Oydinda yurgan odamlar asarlarida, Qodir (qudratli, mislsiz kuch va qudrat sohibi) —Ot kishnagan oqshom asarida, Nurmat (o‘z –o‘zini, borliqni ayon etib, ravshan qilib turuvchining quli). —Yulduzlar mangu yonadil asarida, Nurali (o‘z –o‘zini, borliqni ayon etib, ravshan qilib turuvchining quli) —Oydinda yurgan odamlar qissasida, Sobir (gunohkor, isyonkorlarga jazo berishga shoshilmaydigan zot) —Yulduzlar mangu yonadi qissasida uchraydi.

Asosiy qism

Alloh taolo nomi ishtirok etadigan o‘zbekcha ismlarning katta bir guruhini oxiri -ulla (-ulloh, -alloh) komponenti bilan tugaydigan atoqli otlar tashkil qiladi. Bu ismlarda Allohni turli tomonlama ta‘rif va tavsiflash hamda bu fikrni chaqaloqqa beriluvchi nom orqali izhor qilish, shuningdek, farzandli bo‘lishni yaratganning (xudoning) irodasiga bog‘lash, bu uchun shukronalar qilish, bolaning borlig‘i, kelajagi, istiqbolini tangrining xohish-irodasi deb bilish kabi ko‘pgina murakkab ma‘nolar ifodalanganini ko‘ramiz [2, 194]. Quyida Tog‘ay Murod asarlarida uchraydigan, oxirida -ulla komponenti mavjud ismlar ifoda qiluvchi ma‘nolarni izohlashga harakat qilamiz: Ziyodulla (Alloh bergan tuhfa, ehson; Allohning marhamati yoki Alloh ustun,

ortiq qilib bergan bola) va Fayzulla (Allohning marhamati, himmati; shafqati, muruvvati yoki Allohning quvnoq, baxtiyor farzandi) ismlari —Ot kishnagan oqshom asarida, Xayrulla (Allohning muruvvati, ehsoni, sahovati) —Oydinda yurgan odamlar qissasida uchraydi.

Diniy ruhdagi o'zbekcha ismlarning ikkinchi manbayi bu payg'ambarlarning ismlaridir.

Ma'lumki, tarixda anchagina payg'ambarlar o'tgan bo'lib, ularning aniq soni mavjud diniy ilmda yetarli ravishda belgilangan emas. Ba'zi manbalarda ularning soni 24 ming deyilsa, boshqa adabiyotlarda bundan ortiqroq yoki kamroq adad keltiriladi. —Qur'oni karimda 25 nafar payg'ambarning nomi aniq keltirilgan bo'lib, bular: Odam, Idris, Nuh, Hud, Solih, Ibrohim, Ismoil, Is'hoq, Ya'qub, Yusuf, Lut, Ayyub, Zulkaf, Yunus, Muso, Horun, Shuayb, Ilyos, al – Yasa', Dovud, Sulaymon, Zakariyyo, Yahyo, Iso va Muhammaddir [1, 13]. Xizr, Luqmon va Iskandar Zulqarnayn esa avliyolar safiga kiritiladi.

Payg'ambar leksemasi fors - tojik tilida yasama so'z hisoblanadi. Uning birinchi qismi payg'am - —xabar ma'nosini, ikkinchi komponenti - bar (burdan - eltmoq fe'lining hozirgi zamon asosi)dan iboratdir. Diniy adabiyotlarda, xususan, Qur'oni karim va hadislarda —payg'ambar ma'nosida nabi va rasul so'zlari ishlatilgan. Har ikkala so'z ham arabcha bo'lib, Nabi —ilohiy xabar keltiruvchi, xabarchi; Rasul - —elchi, Ollohning elchisi ma'nolarini bildiradi. Ba'zi tarixiy lug'atlarda Rasul ilohiy kitob sohiblariga nisbatan ham ishlatilgan. Tog'ay Murodning —Yulduzlar mangu yonadil asarida Nabi oqsoqol nomi keltirilgan.

Diniy va ilmiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, Odam Ato Yer yuziga yuborilgan birinchi payg'ambardir. Odam atamasi qadimiy suryoniycha Adam (qizil tuproq) so'zidan olingan. —Odam so'zining turli adabiyotlar va tarixiy lug'atlardagi izohlaridan ma'lum bo'lishicha, u quyidagi ma'nolarni ifodalagan: 1.Odam Ato; 2. Inson, odam; 3. Qora loydan yaratilgan birinchi odam; 4. Tuproqdan yaratilgan inson; 5. Qizil tuproq; 6. Bug'doyrang; 7.Yerning ustki qismi, po'sti - aadam. —Shajarayi turk asarida —Lafzi odam arab tili turur. Yerning qirtishini odim der. Azroil turfoqni yerning ichindin olmadi, taqi qirtishindin olib erdi. Aning uchun odam tedilar, laqabi safiyolloh turur, deyiladi.Tog'ay Murodning —Oydinda yurgan odamlar qissasida Odam Ato va Momo Havo ismlarini uchratamiz:

- Bizni yaratmish Odam Atomizga bir ta'zim!
- Bizni bino etmish Momo Havomizga bir ta'zim!

Payg'ambarlarning tilga olingan nomlarining aksariyati o'zbek kishilarining atoqli oti sifatida ham keladi. Shuningdek, bu nomlarga boshqa ismlar yoki so'zlar qo'shilgani holda yangi nomlar hosil qilingan: Ibrohimboy —Ot kishnagan oqshom asarida, Ismoil —Yulduzlar mangu yonadi qissasida, Yunus —Oydinda yurgan odamlar asarida, Hamid (Allohga hamdu sano aytuvchi) —Yulduzlar mangu yonadi

va —Ot kishnagan oqshom asarlarida, Nabi (payg‘ambar) —Yulduzlar mangu yonadill asarida, Nazir (azoblardan ogohlantiruvchi), Fozil (fazlu karam sohibi) va Muhammad (maqtaluvchi) ismlari —Ot kishnagan oqshom qissasida uchraydi.

—Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi asarida Lut payg‘ambar nomi keltiriladi. Tavrotda ko‘rsatilishicha, Lut Ibrohimning akasi Horonning o‘g‘li. —Qissasi Rabg‘uziyda esa Lut ibn Hozar ibn Vorih ibn Horon deb ko‘rsatiladi. (Rabg‘uziy. 1, 87) Lut qadimiy ibriycha so‘z bo‘lib, —yopishib olmoq ma‘nosini bildiradi. Ba‘zi lug‘atlarda bu so‘z —sodomcha aybni yuzaga keltirmoq ma‘nosiga ega ekanligi qayd etilgan.

Ismoil nomining ma‘nosi va qo‘yilishi haqida turli ma‘lumotlar mavjud: Soraning talabi bilan Ibrohim Hojarni Safo va Marva tog‘lari orasida suvsiz bir joyga tashlab keladi. Hojar o‘g‘lini tuqqandan so‘ng chaqaloq uchun suv axtarib, ikki tog‘ – Safo va Marva orasida yuguradi: —Ul yugurmak bu kun hojilarga sunnat qoldi. Ul holda Hojar Tengrig‘a Isma‘ ya ilu teyu munojot qildi. I suryoniy tilincha tengrining oti turur. —Iziyo, eshitgil! temak bo‘lur. Ul yo‘ldin Ismoil ot berildi (Rabg‘uziy. 1,75)

Demak, Ismoilga ismini farishtalar yoki Hojar bergan bo‘lishi mumkin. Bu ism qadimiy ibriycha bo‘lib, —tangri eshitdi degan ma‘noni bildiradi.

Tog‘ay Murodning —Bobosi bilan nevarasi hikoyasida Ismoil nomi uchraydi.

Yunus yodgorliklarda ko‘p uchrovchi payg‘ambar bo‘lib, uning ikkita ismi bo‘lgan: Yunus va Zannun. —Yunus bizning toat va xidmatda erkanda ani yalavoch taqi sovchi ataduq. Bir soat bizdin g‘ofil bo‘di, ersa baliq ataduq (Rabg‘uziy, 2, 63). Demak, Zannun (Zunnun) —baliqlar sohibi dagan ma‘noni anglatadi.

Yunus ismi Tog‘ay Murodning —Oydinda yurgan odamlar asarida qo‘llangan.

Muhammad yodgorliklarida eng ko‘p qo‘llanilgan ismlardan biridir. Yodgorliklarning ba‘zilarida Muhammad o‘rniga Ahmad, Mahmud, Hamid ismlari qo‘llaniladi. Bu to‘rtala ism ham —rahmat aytmoq, —maqtamoq ma‘nolaridagi arabcha Hamada so‘zidan kelib chiqqan. O‘zakdoshlik asosida yasalgan bu ismlar ma‘no jihatdan ma‘lum tafovutga ega ekanligini ham qayd etish lozim: Muhammad – maqtovga sazovor bo‘luvchi, maqtaluvchi; Ahmad – Ollohga ko‘p va xo‘b hamd aytuvchi; Mahmud – maqtalgan; Hamid – maqtovga sazovor. Muhammad payg‘ambar haqidagi hadis va qissalarda Ahmad, Hamid, Mahmud ismlarining qadimdan qo‘llanilgani haqida ma‘lumotlar mavjud.

Muhammad alayhissalom ismini biz yozuvchining —Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi qissasida uchratamiz. Hamid nomi —Yulduzlar mangu yonadi, —Momo yer qo‘shig‘i va —Ot kishnagan oqshom qissalarida uchraydi. Ahmad ismi esa muallifning —Oydinda yurgan odamlar asarida qo‘llangan.

O‘zbeklarda farzandli bo‘lishni, uning kelajak baxt-u iqbolini ollohga, uning amru qarori va irodasiga bog‘lash va o‘shanga mos ravishda ism qo‘yish yetakchi udumlardan biridir. Mana shu e‘tiqodga ko‘ra dunyoga kelgan chaqaloq Olloh taoloning marhamati, tuhfası, ota – onalarga ko‘rsatgan mehru shafqati deb tushuniladi:

Yaratganning o‘zidan davralarni gursillatib – gursillatib olishadigan o‘g‘il tiladi.

Hartugul, beshinchi farzandi o‘g‘il bo‘ldi.

Tilab – tilab topganim deya, otini Tilovberdi qo‘ydi. (—Yulduzlar mangu yonadi)

Payg‘ambarlar, xalifalarning farzandlari, oila a‘zolari yoki qarindoshlarining nomlari ham mo‘tabar ismlar sifatida e‘zozlangan va o‘zbeklarning farzandlari uchun sevimli atoqli otga aylangan. Chunonchi, Fotima, Maryam, Hadicha, Halicha, Hasan, Husan, Zaynab, Oysha, Safiya, Sofiya (Safiyya), Habiba va boshqalar [2,197]. Zaynab ismi adibning —Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi asari qahramoni nomi sifatida keltirilgan bo‘lib, u Muhammad alayhissalomning xotinlardan birining nomini emas, balki —to‘la, kelishgan ma‘nosini anglatadi.

—Ot kishnagan oqshom asarida Hasan ismi qo‘llangan:

Hasan bobo qo‘limni aylantirib ko‘rdi:

Ebey, qiyshiq-ku, dedi Hasan bobo.

Abu Bakr Muhammad vafotidan keyin hokimiyatni boshqargan birinchi xalifa. Bu ism ma‘nosi adabiyotlarda turlicha izohlanadi: —yosh tuya, bo‘taloq; —tong, —bo‘taloq. A. Irisov fikricha, —Abu Bakr aslida payg‘ambarimiz bilan ilk suhbat qurganlardan biri bo‘lib, tonggi namozni doimo u kishi bilan birga bajo keltirgani uchun Abu Bakr (Tong otasi) deb ataladi. Bu ism arabcha bakrdan kelib chiqqan: bakr – bo‘taloq.

Abu Bakr nomining qisqargan Bakir shakli Tog‘ay Murodning —Yulduzlar mangu yonadi asarida uchraydi.

Umar – xalifalik taxtiga o‘tirgan ikkinchi chahoryor. Bu ism arabcha amr – —yashovchidan olingan. Umar yaxshini yomondan, haqni nohaqdan ajratish qobiliyatiga ega bo‘lgani uchun ham Foruq, ya‘ni farq qiluvchi, ayiruvchi degan nomga sazovor bo‘lgan.

Muallifning —Oydinda yurgan odamlar qissasida Umar ismiga duch kelamiz.

Usmon – ummaviylar urug‘iga mansub uchinchi xalifa. Usmon ham arabcha bo‘lib, —siniqchi (suyaklarni bitkazuvchi) degan ma‘noni anglatadi. Ruqayya va Ummu Kulsumga uylangani uchun —Zunnurayn (Rabg‘uziy, 2, 33) deb atashgan. Zunnurayn —ikki nur sohibi degan ma‘noni anglatadi.

Usmon ibn Maz‘un nomi yozuvchining —Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi asarida qo‘llangan.

Usmon ibn Maz‘un nomi yozuvchining —Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi asarida qo‘llangan.

Bu ismni —Momo yer qo‘shig‘i qissasida uchratamiz.

Ko‘p yillar —tirnoqqa zor bo‘lgani yoki bir qancha jigarporalari yerga bergan oilalarda qanday qilib bo‘lmasin navbatdagi chaqaloqning hayotini, murg‘ak jonini saqlab qolishga choralar axtarishgan. Natijada o‘z farzandlarini muqaddas qadamjoylar, avliyolar, shayxu eshonlarga bag‘ishlash, ularning panohiga topshirish,

amalda va ramziy ma'noda —nazr qilish odati yuzaga kelgan. Mana shu kabi odatning izlari chaqaloqqa beriluvchi o'zbekcha ismlarda o'z ifodasini topgan: Nazir, Nazirali, Nazirjon, Nazirtosh, Nazrulla, Nazirxon, Nazirqul, Nazira, Naziroy, Nazirtosh va boshqalar.

Qurbonnazar otasining qo'lini olib qoldi (—Ot kishnagan oqshom). Bolaga beriluvchi ismlarda ota – onalarning farzandli bo'lishga ruhan ko'maklashganlariga minnatdorchiligi, farzandining esa kelajakda ular uchun sodiq —qul, —g'ulom, —mo'min banda bo'lishi singari fikrlarning izhor etilganini ko'ramiz. Chunonchi, Tog'ay Murod asarlarida uchrovchi Qulmat, Pirimqul, Orziqul, Xudoyqul, Xoliqul, Jo'raqul, Shokirqul, Qoraqul, Hojiqul kabi ismlar shunday ismlar sirasidandir. Farzandning dunyoga kelishi va sog'u salomat ulg'ayishini turli diniy tushunchalarga bog'lash hamda o'shanga mos ravishda ism tanlash orqali ota – onalar, bir tomondan, chaqaloqning musulmon farzandi ekanini ta'kidlashsa, ikkinchidan, ushbu diniy mazmunga ega ism yosh go'dakni turli balo - qazolardan, baxtsizlikdan va o'limdan asraydi, deb ishonishgan. O'zbek ismlari orasida tarkibida —islom, —din, — iddin (- uddin), —mo'min, —banda singari so'zlar mavjud nomlarning ko'pchilligi ushbu ishonch, e'tiqodning natijasidir.

O'zbek tilida oxiri - iddin (- uddin) qo'shimchasi (so'zi) bilan tugaydigan anchagina ismlar bo'lib, ular anglatuvchi ma'nolar turli – tumandir. Jumladan, Tog'ay Murodning —Yulduzlar mangu yonadi qissasida Sayfiddin ismi uchraydi. Sayfiddin so'zi dinning qilichi, shamshiri yoki dinning o'tkir, dovyurak farzandi m'nosini anglatadi.

Allohi Taolo, payg'ambarlar, xalifalar, aziz avliyoyu pirlar —qo'llab qo'ltiqlassa, —yor bo'lsa chaqaloqqa balo-qazolar yaqinlashmaydi, u sog'lom o'sadi, deyilgan xalq e'tiqodi o'z navbatida o'zbek tilida quyidagi ismlarning ijod qilinishiga olib kelgan: Yorulla, Olloyor, Xudoyor, Yormuhammad (Yormat, Yormamat), Muhammadyor (Madiyor, Mamatyor), Yorali, Yoramad, Yorsaid, Xo'jayor, So'fiyor, Do'stali, Alido'st, Do'stmuhammad (Do'smat), Eshali, Eshmuhammad (Eshmat, Eshmamat) kabi. Tog'ay Murod asarlarida bunday ismlardan Xolyor, Olloyor antroponimlari uchraydi.

Xulosa

Islom dini va uning aqidalari asrlar davomida o'zbek xalqining madaniy, ma'naviy hayotiga chuqur singib bordi. Kishilar o'zlarining kundalik turmushi, ishlari, ezgu niyat va amallarini, orzulari, omad va baxtini dinsiz tasavvur qila olmas edilar. Ayniqsa, farzand ko'rish, chaqaloqning hayoti, sog'ligi, uni turli kasofatlardan muhofaza qilishdek muqaddas va nozik ishda dinning sharofati va ko'magiga qattiq ishonishdek e'tiqod chuqur ildiz otdi. Natijada chaqaloqqa beriluvchi bir qator nomlar islom dinining muqaddas, xosiyatli oylar, kunlar haqidagi, ismlarning turli tushuncha, tasavvuf va tasavvurlari haqidagi g'oyalarini ifoda qiluvchi so'zlardan yasaldi. Ushbu

guruhga mansub bo‘lgan bir qator ismlar islomda muqaddas, xosiyatli hisoblangan kunlar, oylar, bayramlar nomidan yasalgandir. Bunday ismlarda, bir tomondan, chaqaloqning tug‘ilgan vaqti, paytiga ishora qilish mavjud bo‘lsa, ikkinchi tomondan mana shu kabi nomlar chaqaloqqa yaxshilik keltiradi, uning sog‘u salomat va baxtli bo‘lib o‘shishiga garov bo‘ladi, deyilgan umid va ishonch mujassamlashgan [2,199]. Chunonchi, kunlar nomidan yasalgan ismlar:

Ay, Odina chavandoz, unda qo‘lni ber, o‘zim sovchi bo‘laman! — dedim. — Qaynsinglimni senga olib berib, sen bilan boja bo‘lmasam, Ziyodulla chavandoz otimni boshqa qo‘yaman! (—Ot kishnagan oqshom).

Odina ismi bizda juma kuni tug‘ilgan qizlarga qo‘yiladi. Yuqoridagi misoldan ayon bo‘lishicha, Odina ismi Surxon vohasida erkaklarga nisbatan ham qo‘llanilar ekan.

O‘zbek lahja va shevalarida Allohning, payg‘ambarlarning nomlaridan yasalgan ismlarning turli qisqargan va shaklan o‘zgargan holatlarda uchrashi buning guvohidir. Chunonchi, Mamat Muhammad (s.a.v) ismining.

Tarlonni minib, Mamat oshnamiznikiga yo‘l oldim. Devordan bo‘ylab ovoz berdim.

Mamat! Mamat uydami, kelin? Uyg‘ot, gap bor! – dedim (—Ot kishnagan oqshom).

Tog‘ay Murodning bir qancha asarlarida qismlari o‘zbekcha va arabcha, arabcha va o‘zbekcha bo‘lgan ko‘pgina ismlar – qo‘shma ismlar ham uchraydi. Jumladan, Alisher, Nurali, Alimardon, Umirali va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adulaziz Mansur., Bahmanyor Shokir. Musulmonchilikdan ilk saboqlar. – Toshkent, 1992.
2. Begmatov E. O‘zbek tili antroponomikasi. –Toshkent: Fan, 2013. –264 b.
3. kizi Yusupova, S. T., & Sayidrahimova, D. S. (2022). ABOUT THE CLASSIFICATION OF RELIGIOUS TEXTS. Eurasian Journal of Academic Research, 2(2), 63-65.
4. Rozikova, G. Z., & Yusupova, S. T. (2021). METAPHOR AS A LINGUOCULTUROLOGICAL PHENOMENON. Theoretical & Applied Science, (12), 1086-1088.
5. kizi Yusupova, S. T. (2019). STUDY OF RELIGIOUS FUNCTIONAL STYLE IN THE WORLD LINGUISTICS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(12), 173-178.
6. Qizi, Y. S. T. (2020). Religious speech and phonetic interference. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(6), 679-683.
7. Yusupova, S. T., & Anvarova, F. A. (2020). Linguoculturological investigation of zoonyms in English and Uzbek. ISJ Theoretical & Applied Science, 11 (91), 78-80.

8. Roziqova, G. (2021). MAHMUD KASHGARIS «DEVONU LUGOTIT TURK» AND MODERN UZBEK LANGUAGE. Theoretical & Applied Science, (5), 222-225.
9. MAMAJONOV, A., & ROZIKOVA, G. (2018). Stylistics expressive speech system. Scientific journal of the Fergana State University, 1(4), 69-71.
10. ROZIKOVA, G. (2018). Non-traditional communication as a methodics instrument. Scientific journal of the Fergana State University, 1(3), 116-117.

